
Obodlikka yuz tutayotgan mahalla

Farg'ona shahridagi "Mustaqillik" mahallasi so'nggi yillarda obodlikka yuz tutmoqda. Jumladan, 2021-2022 yillar davomida mahallaning elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 3 ta transformator va yuzga yaqin beton tayanchlar o'rnatildi, 2500 metrdan ortiq kabel tortildi. 11 kilometr masofaga ichimlik va 1500 metrdan ortiq oqova suvi tarmog'i tortildi. 4500 metr ichki yo'llar asfalt qilindi.

Joriy yilda ham mahallada keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda. Ayni kunga qadar 1500 metr ichimlik suvi tarmog'i tortilib, ta'minotni yaxshilash uchun tik quduq qazildi.

Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida qilingan Davlat dasturlariga asosan 7000 metrga yaqin ichki yo'llar asfaltlandi. Hozirda 1500 metr piyodalar yo'lagi qurilmoqda.

Joriy yilda ham elektr ta'minotini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 2 ta transformator, 131 ta beton tayanchlar o'rnatildi, 2500 metr kabel tortildi.

Obodonlashtirish ishlaridan aholi vakillari behad mamnun bo'lishmoqda.

2023-08-24 16:27:34